



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 31-yanvar, seshanba,

12 (23.733)-son

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz

KUN  
HIKMATI

Rahbar xalqni  
boshqarishi emas,  
balki o‘z ortidan  
ergashtira olishi  
lozim

## MAKTAB ISHI – XALQ ISHI

30-yanvar kuni xalq deputatlari  
Samarqand viloyati Kengashining  
saksoninchi sessiyasi o‘tkazildi.  
Sessiyani Kengash raisi, viloyat  
hokimi E.Turdimov boshqardi.

Videoselektor tarzida o‘tkazilgan sessi-  
yada deputatlari bilan birga kun tartibidagi  
masalalarga aloqador idora va tashkilotlar  
mas‘ullari, ta‘lim sohasi rahbari va xodimlari  
ham ishtirot etdi.

Sessiyada 2022-yil 29-dekabr kuni  
davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ishtirotida  
“Ta‘lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekis-  
ton taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri  
yo‘lidir!” mavzusida o‘qituvchi-murabbiylar bi-  
lan o‘tkazilgan uchrashuvda belgilab berilgan  
vazifalar haqidagi so‘z yuritildi.

– Uchrashuvda mabatlarda ta‘lim sifati  
hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini os-  
hirish, muassasalaridagi sharoitni yaxshilash  
2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri  
bo‘lishi belgilab berildi, – dedi E.Turdimov. –  
Buning uchun davlat tomonidan nimaiki zarur  
bo‘lsa, barchasi ta‘minlanadi. Mahalliy bud-  
jetdan ham sohaga yo‘naltiriladigan mablag‘  
miqdori bu yil har yilgandan ancha ko‘p bo‘ladi.  
Shu kunga qadar maktab o‘z masalalarini  
o‘zi yechadi, degan qarash hukmron bo‘lgan.  
Kuchlar, fikrlarning birlashmasligi xatoligini  
zamonitoring o‘zi ko‘rsatmoqda. Mahalla, xo-  
tin-qizlar, yoshlar faollari ta‘lim tizimi mu-  
mmolarini birligida hal etib, ta‘lim taraqqiy-  
otiga erishishda hamkorlik qishlari zarus.

Uchrashuvda belgilangan vazifalar,  
mamlakat taqdiri bilan bog‘ligligi yurtimizdagidi  
har bir o‘qituvchi, ota-onasi bundan xabardor  
bo‘lishi, mas‘uliyatni his etish kerak.

Bida bolaning bilim olishida ota-onalarning  
mas‘uliyatlari deyarli sezilmaydi. Ota-onasi  
bozor iqtisodiyotini ro‘kach qilmay, nuqul  
moddiy manfaat ortidan quvmay o‘z farzan-  
ning tarbiysi va bilim olishi bilan  
ham jiddiy shug‘ullanishi shart.

Muallimni ayblash oson  
bo‘lib qoldi. Buning aksa  
bo‘lishi, har bir ota-onasi  
bilan maktab o‘rtasida  
shartnomalar imzola-  
nishi, ushbu shart-  
nomada ota-onaning

bolaga tarbiya berish va bilim olishi uchun  
sharoit yaratish borasidagi majburiyatlar  
alohipa belgilab qo‘yilishi kerak.

Har bir bolaga individual yondashish, un-  
ing iste‘dodini ro‘yobga chiqarishga harakat  
qilishimiz lozim. Bunga naqaft maktab, balki  
butun jamiyat mas‘ul.

Ota-onalar maktabga borishi, farzandi  
ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishi kerak.  
Buni faqat o‘qituvchingiz zimmasiga tashlab  
qo‘yib bo‘lmaydi.

– Maktab ta‘limi sohasidagi bugungi islo-  
hotlar zamirida o‘qituvchini ulug‘lash masala-  
si ham turibdi, – dedi viloyat hokimi. – Jami-  
yatda o‘qituvchi kasbi eng nufuzli va obro‘li  
kasb o‘ishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga  
sifatli ta‘limi berish va o‘z ustida ishlashtidan  
boshqa narsa haqida o‘ylamasligi uchun  
barcha sharoitlarni yaritib berishimiz zarur.  
O‘qituvchiga humretsizlik – bu xalqimizga,  
jamiyatimizga humretsizlikdir.

Sessiyada Sharof Rashidov nomidagi Sa-  
marqand davlat universiteti rektori, Oliy Majlis  
Senati a‘zosi Rustam Xolmurowod, viloyat  
Kengash deputati, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi  
20-umumiy o‘ta ta‘lim maktabi direktori  
Zaynab Berdiyeva, Kattaqo‘rg‘on shahridagi  
12-umumiy o‘ta ta‘lim maktabi direktori  
Natalya Petrova, Samarqand davlat chet tillar  
instituti rektori Ilhomjon To‘xtasinov, Samar-  
qand shahar Kattaariq mahalla fuqarolar  
yig‘ini raisi Mehriddin Oripov va boshqalar  
so‘zga chiqib, ushbu masala yuzasidan o‘z  
takliflarini bildirdi.

Atroflichka muhokamadan so‘ng davlatimiz  
rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar  
asosida viloyatda ta‘lim sifatini oshirish yu-  
zasidan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish yuzasidani  
dan qaror qabul qilindi.

– Maktablarida millatimizning ertangi kuni  
ulg‘ayotganligini unutmasligimiz kerak.  
Maktab ishi butun xalq ishi ekanligini anglab  
yetmog‘imiz zarur, ya‘ni ta‘lim sifatini oshirish  
faqtigina pedagoglarning ishi emas, shu  
jamiyatda yashayotgan barcham-  
izing vazifamizdir, – dedi  
E.Turdimov.

Sessiyada Kengash  
vakolatiga tegishli bosh-  
qa masalalar ham ko‘rib  
chiqilib, qarorlar qabul  
qilindi.

## SAYYOR QABULDAGI MUROJAAT SHU KUNNING O‘ZIDA HAL ETILDI

Viloyat hokimi E.Turdimovning joriy yildagi ilk  
sayyor qabuli 28 yanvar kuni Samarqand shahrida  
o‘tkazildi.

Hokim bilan birga viloyatning yana uch sektor  
rahbari va boshqa mas‘ullar ishtirotida o‘tkazilgan  
qabulda tuman va shaharlardan kelgan  
fuqarolar ishtirot etdi.

Aholi turli masalalar yuzasidan murojaat  
qildi. Xususan, sog‘ligni saqlash, ta‘lim, band-  
lik, mehnat qonunchiligiga rioya qilish, uy-joy  
kommunal xo‘jaligi muammolari, shaharsozlik  
me‘yorlarining buzilishi, oilaviy nizolar, mansab-  
dar shaxslar faoliyatidagi kamchiliklar va huquqni  
muhofaza qiluvchi organlarning harakatsizligi va  
boshqa masalalar bo‘yicha murojaatlar eshitilib,  
har bir muammo nazoratga olindi. Aksariyat ma-  
salalarga mas‘ullar ishtirotida shu yerning o‘zida  
yechim topildi.

Samarqand shahrida yashovchi T.Konavalova uyida yashash uchun  
sharoiti yo‘qiligi bildirib, viloyat hokimidan yordam so‘radi. Ushbu masala  
darhol nazoratga olinib, shu kunning o‘zida fuqaroning uyiga mebel va

boshqa jihozlar yetkazib berildi.

Albatta, qabul davomida to‘rt mushasi sog‘  
bo‘isa-da yoki qo‘lidan ish keladigan oila a‘zolari  
bo‘la turib, boqimandalik keyfiyatida hokimlik va  
rahbarlardan yordam so‘raganlar ham bo‘ldi.  
Bunday kishilarga ishga joylashish yoki biror bir  
kasb-hunar o‘rganib, ro‘zg‘or tebratishi uchun  
yordam berish tushuntiriladi. Noqonuniy talab va  
asossiz murojaatlar rad ettili.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar yoki og‘ir xas-  
talikka chalingan fuqarolar, murakkab jarohlik  
amaliyoti o‘tkazish zarurati bo‘lgan kishilarga  
har tomonloma yordam berish bo‘yicha cho-  
ra-tadbirlar belgilandi.

Olti soatdan ortiq davom etgan sayyor qa-  
bulda jami 822 ta murojaat ko‘rib chiqildi. Mur-  
ojaatlar asosan Samarqand shahri aholisidan  
har tomonloma yordam berish bo‘yicha cho-  
ra-tadbirlar belgilandi.

Har bir murojaatni qonunchilikda belgilangan muddatda ko‘rib chiqish  
yuzasidan mas‘ullarga topshiriqlar berildi.

## Islom Karimov yod etildi

30-yanvar - O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti  
Islom Karimov tavallud topgan kun munosabati bilan viloya-  
timida xotira tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

Dastlab viloyat faollari Samarqand shahridagi Islom Karimov maqbara-majmu-  
sini ziyorat qildi. Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirishdi. Qur‘on tilovat  
qilindi.

Shundan so‘ng viloyat va shahar hokimliklari, huquq-tartibot idoralari vakillari,  
harbiyalar hamda keng jamoatchilik vakillari Islom Karimov haykali poyiga gullar  
qo‘ydi.



Islom Karimov fondi tashabbusi bilan  
tashkil etilgan yana bir tadbirda viloyat  
va Samarqand shahar hokimligi vakillari,  
nuroniyalar, faollar ishtirot etdi. Tadbir  
awalida ishtirotchilar I.Karimov tug‘ilib  
o‘sgan xonadonida bo‘lib, ulug‘ inson  
xotirasini yod etdi. Shundan so‘ng mus-  
taqilimiz asoschisi xotirasiga  
bag‘ishlab ehson dasturxonni  
yozildi. Tadbirda Islom  
Karimovning hayoti,  
ilm-fan, madaniyat va  
ma‘naviyatni rivojlant-  
ish borasidagi ishlari  
eslandi.

- Mehnat faoliyatim davomida  
Islom Abdug‘aniyevich bilan bir necha  
bor uchrashishga tuyassar bo‘iganman,  
- deydi mehnat faxriysi Salo-  
hiddin Bobomurodov. – 2015-yilda  
Samarqandga tashrifi chog‘ida biz,  
faxriyalar bilan birma-bir ko‘rishib,  
mening qo‘limni siqarkan “Sizni  
esladim, pillachilikni rivojlantirish  
bo‘yicha ko‘p ishlar qilishimiz kerak”, deganidi.  
Islom Karimov har bir  
sohani chuqr biladigan,  
yuksak tafakkurli va salo-  
hiyatli inson edi.

## “AYOLLAR DAFTARI” ning to‘rtinchi bosqichi boshlandi

Kimlar ro‘yxatga kiradi?

Bu yil “Ayollar daftari”ning to‘rtinchi bosqichi amalga oshirilish arafasida.  
Xo‘sh, milliardlab pul mablag‘lari ajratilayotgan mazkur daftar ro‘yxatidagi-  
lar qanday yordam olishga muvaffaq bo‘ldi? Nega hamon aholi orasida  
mazkur daftarga nisbatan ishonchszilik bor? Bu yil ro‘yxat yangidan tuzi-  
ladimi yoki... Shu va boshqa savollar bilan O‘zbekiston kasaba uyushmalari  
Federatsiyasining viloyat kengashi raisi Suhrob Rafiqovga murojaat qildik.

(Davomi 3-sahifada) >>>



## OB- HAVO



Bugun havo o‘zgaruvchan bo‘lib, ayrim joylarda yomg‘ir, qor yog‘ishi, tuman tushishi  
mumkin. Ba‘zi hududlarda shamolning tezligi 15-20 metr soniyagacha kuchayadi.  
Harorat kechasi 3 daraja sovuq, 2 daraja iliq, kunduzi 5-10 daraja iliq bo‘ladi.

1-3-fevral kunlari yomg‘ir yog‘adi, ayrim joylarga tuman tushadi. Shamol tezligi  
15-20 metr soniyagacha ko‘tariladi. Kechasi 1 daraja sovuq, 4 daraja iliq, kunduzi  
5-10 daraja iliq bo‘ladi.

Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.

Ushbu haftada ob-havoning biroz isishi va yog‘ingarchiliklar bo‘lishi  
kutilmogda. Bunday vaziyatda qor va muzlarning erishi natijasida suv oqim-  
lari yuzaga kelishi va joylarda ko‘p migordoa suv to‘planishi mumkin.

Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarning oldini olish  
maqsadida yurdoshlarimidan o‘zlarini yashab turgan hududlarda suv  
oqimi yo‘llarini ochib, ariq va zovurlarni suv oqimini to‘xtatishi mumkin  
bo‘lgan xas-hashak va chiqindilardan tozalab qo‘yishlarini so‘raymiz.

**Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor...**

Nurobod tumani Tepaqul qishlog‘ida boychechak ochildi.

## Tadbirkorlarga yengilliklar berildi

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllarining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim turlarini tugatish hamda zamonaviy korporativ bosh-qaruv usullarini joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlari bo'ldi.

Mazkur qaror bilan 2022-yil 1-dekabrdan boshlab tijorat tashkilotlari faoliyatiga oid bir qator tabalab bekor qilindi.

Xusus:

a) quyidagi tashkilotlarga nisbatan ichki audit xizmatlarini tashkil etish:

mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, bundan aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan, davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyat, shuningdek, kredit tashkiloti mustasno;

**Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bolalarni maktabgacha ta'limga bilan qamrab olish darajasi Toshkent shahrida o'tkazilgan UNESCOning Maktabgacha ta'limga bo'yicha umum-jahon anjumanida yuksak e'tirof etildi va shu bilan birga, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardag'i ta'limga va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi, deyildi.**

## Ta'limga bog'chadan boshlanadi

Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanishi, ya'ni ta'limga tarbiya tizimidan boshlanishi to'g'risida yangi o'g'alar ilgari surilidi. Albatta, ta'limga tarbiya tizimining boshlang'ich bo'g'ini bu – maktabgacha ta'limga hisoblanadi.

Yurtimizda bolalar bog'chalar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Raqamlarga e'tibor beradigan bo'sisak, 2017-yilda viloyatimizda 564 ta bog'chaga 63621 nafr bola (3-7 yoshdagi bolalarning 20,9 foizi) qamrab olingen bo'lsa, 2022-yilning yakuniga kelib, 3633 bog'chada 242 ming nafridan ziyod bolaga (69,7 foiz) ta'limga tarbiya berilmoqda.

Bog'chalar soni tahsil qilinganda, 2017-yilda nisbatan davlat bog'chalar 179 taga, xususiy bog'chalar 60 taga, davlat-xususiy sherlik asosidagi bog'chalar 127 taga hamda olibayli nodavlat bog'chalar 2703 taga ko'paygan va ularda qo'shimcha 179 ming o'rinni yaratilib, bolalarni bog'chalgara qamrab olish ko'rsatkichi 48,9 foizga oshdi.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida sohada nodavlat sektorning ulushi 2017-yilda 1 foiz bo'lgan, bugungi kunga kelib 40,3 foiza yetdi.

Mazkur maktabgacha ta'limga tashkilotlarning tashkil etilishi hisobiga 14290 nafr ishsiz fuqaro ish bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda har bir maktabgacha ta'limga tashkilotidagi guruh xonalari "Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika", "Sujettirolli o'yinlar va sahnalashirish", "San'at", "Til va nutq", "Ilm-fan va tabiat" markazlari didaktik va tarqatma materiallar bilan jhozlangan.

Sohada ta'limga tarbiya sifatini oshirish maqsadida 2022-yilda davlat budjeti hisobidan bog'chalar 4 milliard so'mlik 22 turdag'i didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llannalar, o'yincholar va har xil turdag'i sport inventarlari bilan ta'minlandi.

Ta'limga tarbiya sifatini oshirish maqsadida tajribali, ijodkor va fidoyi pedagoglarning tashkilotlari, 2021-yilda viloyat "Mahorat maktabi" tashkil etildi.

Hozirgi kunda mazkur maktabning ekspert guruhlari tomonidan bog'chalarla me'yoriy hujjalarning yuritilishi, tajribalari pedagoglarning "Ustoz-shogird" an'anasiga ko'ra birikritik, bolajonlarga ta'limga tarbiya berishda yangicha yondashuv asosida mashq'ulotlar o'tkazilishi bo'yicha telegram messengerining rasmiy kanali orqali kunlik yangiliklari va metodlar bilan tashkilmoqda. Obunachular soni 7 ming nafaridan oshdi.

Biz 2023-yilda maktabgacha ta'limga tashkiloti direktorlarining mas'uliyatini oshirishni maqsad qildik. Yil davomida direktorlar o'zaro kasbiy tajriba almashtadi. Ularning tashhabbuslarini qo'llab-quvvatlash yusuzidan viloyatning boshqa hududlarida joylashgan bog'chalarda ko'rgazmali ochiq mashq'ulot, o'quv-amaliy seminar hamda "Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish tartibi" mavzusida taqdimot o'tkazish rejalashtirildi.

Jarayonlarga tadbir o'tayotgan maktabgacha ta'limga tashkilotining "Kuzatuv kengashi" a'zolari jalb qilinadi.

Bundan tashqari, joriy yilda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bilan hamkorlikda maktabgacha ta'limga yo'naliishi tahlis tayotgan tabalabarni maktabgacha ta'limga tashkilotlari ishga joylashtirish va bu orgali oly ma'lumotli pedagoglarning ulushini yil yakuniga qadar 27,6 foizdan 38 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Zayniddin JO'RAYEV,  
viloyat maktabgacha ta'limga  
boshqarmasi boshlig'i.




1-apreldan boshlab:

mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fon-diga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan, qiymati hisoblash miqdorining o'n ming baravaridan ko'p bo'lgan pulsiz hissalar baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi va baholangan qiymatdan yuqori bo'lishi mumkin emas;

yuridik shaxslar qo'shib yurish, qo'shib olish va tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganda, korxonalarining huquq va majburiyatlar, topshirish hujjatida ko'sratilgan yoki ko'satilmaganligidan qat'i nazar, qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga o'tgan hisoblanadi;

xo'jalik jamiyatlarini kuzatuv kengashining aksiya, korporativ obligatsiya va boshqa qimmatli qoq'ozlarni chiqarish bo'yicha qarorlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq muhim fakt sifatida oshkor qilinadi.

**Aziz SOBIROV,**  
Samarqand shahar adliya bo'limi Davlat  
xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i.



## Ko'cha tozalashga chiqmasak, ishdan bo'shatish bilan jazolashmoqchi...



**- Hokimiyat tomonidan ish-xonamizdag'i barcha xodimlarini ko'cha tozalashga jalb qilish haqida topshiriq bo'ldi. Majburiy mehnat qonun bilan ta'qilanganmi?**

**S.HASANOVA,**  
Payariq tumani.

- Qonunchiligidizga binoan majburiy mehnat ta'qilangan. Lekin ba'zi hollarda qonun normalardan bexabarlik, huquqiy bilimlarimizning sayozligi sabab shunday qonunbuzilish holatlarga yo'l olib beramiz.

Konstitutsiyaning 37-moddasiga asosan Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'sratilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqilangan. Shuningdek, amaldagi Mehnat kodeksining 7-moddasiga asosan majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan, mehnat intizomi ni saqlash vositasini tariqasida) ish bajarishga majburlash ham mumkin emas.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasiga ko'ra, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash (bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno) bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravargacha (30 million so'ngacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 148-2-moddasida mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash (bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno) xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravargacha (45 million so'ngacha) miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolandi, deb belgilangan.

Xuddi shunday harakat voyaga yetmagan shaxsiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravargacha miqdorda jarima (60 million so'ngacha) yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolandi.

Ishchilarining huquq va manfaatlarini yanada himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasida tomonidan 2018-yil 10-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida majburiy mehnating oldini olish va unga to'liq barham berishga doir aniq hamda amaliy chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Unga ko'ra, fuqarolarni, jumladan, ta'limga sog'liqni saqlash muassasalarini, boshqa budjet tashkilotlari xodimlarini, ta'limga muassasalarini o'quvchilarini va talabalarni majburiy mehnatga, shu jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'kalazmalarishish ishlari, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, metall chiqindilari va makulatura yig'ish, shuningdek, boshqa turdag'i mavsumiy ishlarga jalb qilish ta'qilangan.

**Orif MUHAMMADIYEV,**  
viloyat adliya boshqarmasi  
bo'lim boshlig'i.

## CHORVADORLAR YURTIDA SANOAT HAM RIVOJLANYAPTI



**Nurobod tumani aholsining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band bo'lsa-da, keyingi yillarda tumanda sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qartilmoqda.**

O'tgan yil tumanda sanoat mahsulotlari ishlabilan chiqarish hajmi 413,6 milliard so'mga oshib, 123 foizni tashkil etdi. Aholiga ko'sratilgan xizmatlar hajmi 410,3 milliard so'mni, qurilish ishlari hajmi esa 94,6 milliard so'mni tashkil etdi. Eksportga 14,3 million dollarlik mahsulot jo'natildi, import hajmi 17,8 million dollardan oshdi.

Tadbirkorlar uchun yaratilgan imtizoy va yengilliklari tufayli bugungi kunda tumanda jami eksport qiluvchi korxonalar soni 11 tani tashkil etib, ularning yettитasi dunyoning olti davlatiga 14 turdag'i mahsulot eksport qildi.

Tuman salohiyatidan kelib chiqib, 2023-yilda eksport ko'sratikchilari 16 million dollar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 13,8 million dollarga yetishi kutilmoqda.

"Mahallabay" tizimi samaradorligini oshirish maqsadida tumanda tadbirkorlikning 14 ta asosiy yo'naliishi bo'yicha "Yo'l xaritas" ishlabilan chiqilgan.

2022-yilgi mahalliy budgetning bajarilgan qam qismaning 8 milliard 550 million so'mi yoki 30 foizi "Ochiq budget" loyihalarini amalga oshirishga, 609 million so'mi yoki 15 foizi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi ga yo'naltirildi.

Nuroboda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. 2022-yilda tadbirkorlik sub'yektlari soni 1098 taga oshdi.

2023-yil 1-yanvar holatida tumanda davlat ro'yxatidagi o'tgan va faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlarining umumiyo soni 2 ming 598 tani tashkil etidi. Shundan 1 ming 797 tasi yuridik shaxs,

801 tasi yakka tartibdagi tadbirkordir. Xorijiy sarmoya jaib etilib, yangi loyihalar amalga oshirilgach, qishloq ahli uchun yangi ish o'rinnari yaratilmoqda. Keling, faktlarga murojaat qilaylik. O'tgan yili 17 ming 868 kishi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2023-yilda 1,8 ming yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, "xonardonboy" va "mahallabay" tizimlari ham o'zining ijobji natijalari bermoqda.

2022-yilning yanvarida 1015 oila "Temir daftari"ga kiritilgan bo'lsa, dekabr oyida ularning soni 20 tani tashkil etdi. Xuddi shunday o'tgan yil boshida "Yoshlar daftari" kiritilgan 1901 yoshlardan 93 nafr qolgan bo'lsa, "Ayollar daftari" kiritilgan 2505 nafr xotin-qiz yil oxirida ushu daftardan butunlay chiqarilgan. Ularga 2,5 milliard so'm miqdorida moddiy yordam ko'satildi.

Joriy yilda bunday daftarga kiritilgan kam ta'minlangan oilalarga 3 milliard 600 million so'm moddiy yordam ko'satiladi.

Joriy yilda arzon uy-joylar qurish dashti doirasida tumanda umumiyo qiymati 3,1 milliard so'mlik bitta loyiha amalga oshirilib, 16 ta maktab sport zali hamda 17, 39, 55-ixtosisolashirilgan maktab filiallari qurildi.

Manzilli dastur asosida mahalliy budget mablag'leri hisobidan 8, 17, 25, 43, 45, 63-maktablar uchun qo'shimcha binolari buno yordi etiladi.

Eng muhim sarmoya ta'limga, kela-jakka qo'yilgan sarmoyadir. Bu borada Nuroboda ham xayrlı ishlari amalga oshirilayti.

O'tgan yili maktabimiz jamoasi "Zakovat" intellektual o'yinida Samarqand viloyati sharafini munosib himoya qilib, respublikasi ikkinchi o'rinni egalladi, - deydi 11-umumta'lim maktabi direktori Farida Narimonova. - Bu yil jamao a'zolari respublikada birinchi o'rinni egallashni niyatida. Maktabimiz reytinda tumanda

"yashil zona"ga kirgan yagona maktabdir.

Tumanda 2022-yilda 18 milliard so'm budjet mablag'leri hisobidan 700 o'rini 9 ta maktabgacha ta'limga muassasasi qurilib, foydalanshiga topshirildi. Mash'al mahallasidagi 60 o'rini 19-davlat maktabgacha ta'limga tashkilotlari ana shunday muassasalaridan biri hisoblanadi.

- Bu ob'yeqt qishlog'iimiz ahlining amalga oshgan azaliy orzusi, - deydi muassasa rahbari, xalq deputatlarini tuman Kangashi deputati Baxtigul Rasulova.

- Bino 1 milliard 320 million so'm budjet mablag'i hisobidan barpo etildi. Ayni paytda bu yerda 22 kishi mehnat qilmoqda. Bolalar muassasada chet tilli, raqs, shaxmat, shashka to'garaklari faoliyat ko'satmoqda.

Nurobod tumanida, Samarqand shahridan 40 kilometr janubi-g'arbda, tog' bag'iridagi Oqsoy qishlog'i hududida Hazrati Dovud (Avliyo Dovud) g'ori mavjud. Bu yu mahalliy va xorijlik sayyoohlari eng ko'p tashrif buyuradigan maskanlardan bira bo'lib, haqli ravishda Nurobodning o'ziga xos tashrif qog'zo'z hisoblanadi.

Hududni obodonlashtirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar samarasida o'tgan yili bu yerda sayyoohlari va ziyyoratchilar uchun ham qo'shimcha shart-sharoitlar yaratildi.

Mahalliy sayyoohlari uchun Nurobodda gi yana bir ardoqli maskan mashhur ilon ovchi, O'zbekiston xalq tabobati uyusmasi a'zosi Alisher Yomatovning "Yovvoyi tabiat burchagi"dir. Ikki yil avval bu yerda hayvonot bog'i tashkil etilgan bo'lib, unda o'dan ortiq yov



↓ "Zarafshon" gazetasining 110 yilligi oldidan

# TURKISTONDA MATBUOT

Yaqinda Farhod Alizoda tahririyatga kelib, Moskva shahriga borganligi, u yerdagи arxivlardan bobosi Said Rizo Alizoda faoliyati bilan bog'liq ayrim hujjatlар bilan tanishganini aytди. Ular orasida 1924-yil 21-iyunda chop etilgan "Zarafshon" gazetasining 157-soni nusxasi bizni ham qiziqtirdi. Gazeta chop etila boshlagan vaqt – 1913-yildan 1928-yilgacha arab imlosida bosilgan. Shu bois undagi maqolalarni tarjimon Fozil Shukurov ko'magida o'zbek tiliga o'girdik.

Quyida ushbu gazetada Said Rizo Alizoda imzosi bilan berilgan maqolalardan birini o'qisiz.

Biz o'zbek qizil matbuotning olti-yillik bayramini o'tkazturg'on chog'izimizda, umuman, Turkiston matbuotini ko'don kechirib, eski davr matbuotini bir-biri bilan solishtrib ko'rushimiz lozimdir.

Turkiston, imperaturliq qullug'i davrida butun ilm va maorifdan mahrum turq'onlig'idek, ozod matbuotdan ham mahrum edi. Keyingi-yillarda, ya'ni 1905-yil Rusiya inqilobidan so'ngra Turkistonda birta-yarimta gazeta-jurnol chiqqan bo'lsa ham, ular mahkumillat matbuoti sanalg'anlig'i sabablik u zamondagi humumat tomonidan yordam ko'rmaq nori tursun, kunda ming turluk saqlashlarga ...yilini to'durmasdan mahv bo'lub ketar edilar.

Shuning bilan barobar taraqqiy va tajaddud yo'liq a ochiqdan-ochiq xizmat qila olmas, Turkiston xalqini oqartirish, madaniyat dunyosig'a chiqarish va huquq egasi qilish kabi oly maqsadlarni yuz turlik rivo va tamalluq pardalariga o'rab yo aytalar, yo aytal olmas edilar. Hatto til va uslubin soddalashtrish uchun ham ochiq yo'li edi.

Hali esimdan chiqmaydur: marhum mutifiy Mahmud Xo'ja Behbudiy tomonidan chiqarilgan "Oyina" jurnolining tili bi oz tuzola boshlag'ach, Turkistonda rus qora guruhining temsils mujassammasi bo'lg'on Ostromufl tomonidan tanbeh va tavbixga uchradi. "Turkiston viloyatinning gazeti" musannifi bo'lg'on Ostromufl, Samarqand hokimiga "Oyina" jurnolining tili aynan "Turkiston viloyatning gazeti"ning tilidek bo'lsun. Agar Behbudiy bunga itoat qilmasa, jurnolini yopish kerak – mazmunda maxsus xat yozib, tanbeh qilishiga undadi. Hokim ham Behbudiy o'z huzuriga chaqirib qattiq' tanbeh qildi. Miftuni, jurnolini bog'lash va o'zini jazog'a uchrotish bilan qo'rqtidi.

Mana shuning uchun eski davrda Turkistondan muharrir va gazeta xizmatchisi turmaday.

Emdi kelaylik yangi davrga: ("Yangi davr" deb biz o'ktabr inqilobini aytamiz. Chunki muvaqqat hukumat davri ham eski zamonining nusasidan boshqa bir narsa emas edi.)



O'ktobr inqilobidan keyin sho'rolar hukumati Turkiston yerlik matbuoti yaxshig'ina ahamiyat berdi. Yerliklardan matbuot xizmatchilari yetishtirish, yerlik matbuotning davomini ta'min qilish uchun achagining o'nrodi. Avallarda ish juda qiyinliq bilan borar edi. Chunki yerliklardan muharrir yo'q, murattib yo'q, muslimonchiga harf yo'q.

Xulosa ma'naviy wa moddiy hech bir narsa go'yo yo'q edi. Lekin firqa va sho'rolar hukumatining keng yordamni va katta fidokorligi kulagasida bora-bora bir miqdor harf va texnika asbobi hozirlandi. Dastlab muharrirlar va yosh qalamkaslar maydonga keldi. O'zbekcha til va uslub tuzuldi. Turkiston ischi va dehqonining hol tilmochi bo'lg'on gazeta va jurnollar chiqdi va chiqayotibdu.

Bundan to'rt-besh yil burun Turkistonning qishloqlaridan emas, shaharlaridan o'zbekcha duo-salom xati yozorligi kimsalar zo'rg'a topilar ekan. Bu kun qishloqlardan gazeta muxbirlari, sof va sodda o'zbekcha maqolalar yozaturlar o'zmuhrirlar yetishdi. Demak, Turkiston faqat yangi davrda haqiqiy matbuotga ega bo'ldi.

Lekin hali bu yo'lda qilinoturg'on xidmat va vazifa tamom bo'lg'on emas. O'zbek qizil matbuotni "Qizil matbuot" ismiga loyiq bir darajaga bitgizish uchun yana ko'b fidokorliklar kerakduri. Bundan keyin bajaratayturg'on vazifalarning eng kattasi, qishloq xalqini gazetaga yaqinlashdirish, dehqon va ishchilar ko'bchilagini gazeta o'quturing o'qishidur. Turkistonda nashr bo'layotqon o'zbekcha gazetalarning har biri o'n ming nafer haqiqiy o'quvchig'a ega bo'lg'ong'acha o'zbekcha qizil matbuot bo'lg'a qilinoturg'on xidmatlar ado qilindi, deb tinjanish tuzuk emas. Ikkinci bayramni har bir gazeta o'n ming o'quvchi bilan qarshi olishi kerak.

Said Rizo ALIZODA.

Surdatda: "Zarafshon" gazetasining yorit'uvchilar hay'ati (chapdan): Said Rizo Alizoda, Hoji Muin, Ali Ismoilzoda, Muhammadjon Yusufi, Yuriy Mixaylov. 1924-yil.

Sho'ro davrida nomzodlik disser-tatsiyasini yoqlash uchun falsafa, chet tili va mutaxassislikdan imtihon (minimum) topshirilar edi. O'zbekistonimizda, asosan, ingliz, nemis va fransuz tillari o'qitilgan. Kamina maktabda nemis, universitetda fors tilidan ta'lif olgan edim. Nomzodlik minimumi ham fors tili bo'yicha topshirildi. Chamamda, shu Moskvaga unchalar yoqma-di. "Nima, bu ketishda o'zbeklar Eron bilan yaqinlashadimi?", deb o'ylashgan bo'lsa kerak-da. Oxiri 1986-yilning 16-aprel kuni sobiq Ittifoq Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan fors tili bo'yicha suhbatga chaqirildim.

Avval: "Nega fors tilidan topshirgansiz?", degan savolga rus tilida javob berishga to'ri keldi. Oltta asos keltirdim. Bu yerda ularni sanab o'tirishning hojati yo'q. Keyin bi olimga so'z berildi. U kishi bevosita forsiya suhabat boshladi-ku:

- Rafiq Olimuf, esme sharife shumo chist?

Bu: "O'troq Olimov, sizning sharafi ismingiz nima?", degani edi. Aslida, bu juda ilmoqli savol edi. Tilni chala bilganlar savolning o'zidan kelib chiqib jumla tuzardi-yu: "Esme sharife man falonche ast", derdi. Bu: "Mening sharafi ismim falonchadir", degani bo'ladi. Tamom, shu bilan qarmoqqa ilinardi-qolardi. Chunki, axir, kim

# "Sh" va "Sharif"

Yoxud sharmandalik shunchalikmi?

o'zining ismini o'zi "sharaflı" deb tilga oladi?!

- Esme man Sultanmurod ast, - dedim "sharif" so'zini tashlab ketib.

Bu hangomani bekorga keltirayotganim yo'q. Yaqinda bir nufuzli idoradan o'zim haqimda ma'lumotnomha tayyorlab berishim so'raldi. Xato qilmasligim uchun namunam ham jo'natildi. Qay ko'z bilan qarayki: "Familiya, ism, ota ismi" so'ralgan qator tagiga: "Familiya, ism, sharif" so'zlarini yozib qo'yilgan.

Astaghfirulloh! Qachondan beri tilimizda "sharif" so'z "ota ismi" (ruscha "otchestvo") bo'lib qoldi?

Kim o'zi bunday ixtirolarni o'ylab topadi?

Nega hammamiz jim turaveramiz?

Axir, til – xalqniki-ku!

Uni o'zicha o'zgartirishga hech kimning haqqi yo'q-ku!

Bu-ku hali unchalar keng yoyilib, ommalashib ketmagan.

Lekin bugun ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni bir o'qing. Millatimizing buyuk-dan-buyuk boyligi bo'lmish ona tilimizga o'zboshimcha munosabatlardan tepe sochingiz tikka bo'lib ketadi.

Lotin yozuvni asosidagi yangi alifboda "sh" harfini "sh" tarzida qabul qildik. To'g'ri, bir tovushni harf qo'shilmasi bilan ifodalash

ko'pchilikka yoqmadidi. Hozirgi paytda buning chorasi o'ylyapti.

Ko'p fuqarolarimiz, o'ylamay-netmay, lotin yozuvni asosidagi alifbomizda matn yozayotganda "sh" o'rniga "w" harfini qo'llashyapti. Bunda, ehtimol, uning kirimli yozuvidagi "u" ga shaklan o'xshab ketishi sabab ham bo'layotgandir. Ammo bu hech mumkin emas-ku!

Yana o'sha O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, ustoz Abdulla Oripovning mashhur satrlarini takrorlashga to'g'ri keladi:

*Qachon xalq bo'lasen, ey sen – olomon!  
Xo'sh, xalq kim?*

Xalq shunday katta kuchki, hatto davlat ham bir harfini o'zgartirishni undan so'raydi, ya'ni avval umumxalq muhokamasidan o'tkazadi.

Shunday ekan, bu vatandoshlarimiz kimdan so'rab "sh"ni "w" tarzida yozayapti?

Kaminaga qolsa, bunday holatlarga keskin choralar qo'llanilishi kerak.

Nima dedingiz?

**Sultonmurod OLIM,**  
**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.**

\*\*\*

"Hurriyat" gazetasining 2022-yil 28-dekabr sonidan olindi.

## Bir asar tavsifi



## BOG'DAGI MUSHOIRA

"Samarqand muzey durdonalari" turkumidan

**Buyuk o'zbek shoiri, olim va yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan boburiylar sulolasining umum-bashariyi madaniyatga, xususan, kitobat san'ati va kitob be-zashda miniatyura san'atiga qo'shgan hissasi salmoqli.**

Boburiylar davri miniatyurasi O'tra Osiyo maktablari bilan mahalliy hind miniatyura san'ati an'analarining ijodi sintezi sifatida yaratilgan. Bu mavzularining va dunyoviy tasvirlarning xarakteri va o'ziga xos realzimi bilan o'zidan oldin yaratilgan ajarilb turadi. Shu bilan birga, boshqa Sharq miniatyuralari singari kitoblarning mazmunini chucherqoq oshib berishga xizmat qilgan. Buning yorqin misolini "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyura lavhalari ko'rishimiz mumkin.

Kitob bezash san'atida, kichik bir kitob varagi siyadha butun bir voqeani yoki suyjetlar turkumini tasvirlash zaruratidan "Boburnoma" asarini bezatgan musavvir bo'lib. Boburiylar tasviriy san'atining ba'zi namunalari ko'chirilgan nusxlarda saqlanib qolgan. Ana shunday tasviriy san'at asarlari bigza nafaqat san'at turi, balki tarixiy voqeqlar to'g'risida to'liqroq tasavvur beradi.

Samarqand davlat muzey qo'rixonasi tasviriy san'at fondida ana shunday nodir asarlarning mohibi musavvirlar tomonidan ishlangan ba'zi nusxlari saqlanadi. Xususan, Humoyun Mirzo saroyida faoliyat yuritgan mashhur musavvir Mir Said Ali Tabriziy mo'yqalamiga mansub, 1555-yilda yaratilgan "Bog'dagi mushoira" yoki "Bog'dagi bazm" deb nomlangan asari Bobur Mirzo va uning avlodlarini madaniyat, san'at va adabiyotda naqadar yuskakidiklari ekanligini ko'rsatdi. Mo'yqalamning nozik chizgilari orqali

Miniatyura asarlari asosan kichik hajmi tasviriy san'at turiiga kiradi va kitobat san'atida, naqqoshlik san'atida ko'proq qo'llanilgan. Muzej ekspozitsiyadagi "Bog'dagi mushoira" asari esa kamdan-kam hollarda ishlanaqda miniatyura san'atining dastgohli rangtasvir yo'nalishi hisoblanib, ushbu asar san'atshunoslar tomonidan O'zbekiston tasviriy san'atining chinakam durdonasi sifatida e'tirof qilindi.

**Safura RO'ZIMUROTOVA,**  
**O'zbekiston madaniyatini tarixi davlat muzeyi san'at bo'limi mudiri.**

## FEVRAL OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

**1-FEVRAL**  
Mamatqul Hazratqulov – 1947-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist.

**2-FEVRAL**  
Bahrom Boboqulov – 1928-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori.

**Rushana Monanova –** 1993-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi.

## Nigma va Navbahor Osiyo championi!



Tailand poytaxti Bangkok shahrida 22 yoshgacha bo'lgan bokschilar o'tasida Osiyo championi bo'lib o'tdi. Musobaqaning qizlar o'tasidagi finalda boshida 8 nafr bokschimiz ringga ko'tarildi. Ularning 6 nafriga qozonib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Ikki bokschimiz finalda imkoniyatni boy berdi va kumush medalni, yana ikki nafr bokschimiz bronza medalini qo'lg'a kiritidi.

Sovrindorlar orasida samarqandlik sportchilar ham bor. Jumladan, 54 kilogramm vazn toifasida musobaqa da ishtiroy etgan ishtixonlik bokschi Nigma O'ktamova, 66 kilogramm vazn toifasida jomboylik sportchi Navbahor Hamidova Osiyo championligini qo'lg'a kiritdi. Shuningdek, 57 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilgan bulung'urlik bokschi Sitora Turdibekova kumush medalga ega chiqidi.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 578 nusxada chop etildi. Buyurtma 55. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**D.TO'XTAYEV.**